



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ahmedova Husniya Muhiddinovna

SamDCHTI magistranti

SEMELFAKTIV FE'LLARNING LEKSIK VA ASPEKTUAL TURKUMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi semelfaktiv fe'llarning hozirgi adabiyotning kengayishi negizi ostidagi aspectual sinfini tadqiq qilinadi. Shuningdek, fe'lning nafaqat morfologik xususiyatini predikatning holat va vaziyat o'rtalig'idagi tafovutni aniqlashga olib kelishini bilib oldik, balki modulyatsiyalanmagan predikatning o'zi jarayonning qanday uslubda vaqt bilan ichki strukturaviy bog'lana olishini ham tushuntirib beriladi.

Kalit so'zlar: Semelfativ, aspect, kesim, leksik aspekt, Staticity, telos, predikat, aspectual, morfologik.

Kirish. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan bu har bir pedagog kadrning kasbiy bilim, ko'nikma, malakasi yuqori darajada bo'lishidir. Shu maqsadda o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, so'nggi yillar davomida malaka oshirish tizimi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan yangi davlat talablari, ularga muvofiq holda yangi o'quv reja, dasturlar hamda zarur me'yoriy hujjatlar amalga joriy qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak” [1], degan muhim vazifa qo‘yilgan.

Asosiy qism. Semelfativ fe‘llar deb takroriy harakatlarning yakkalik shaklga aylanishiga aytiladi.

Masalan,

He knocked on the door.

She coughed.

Bu yerda “knock” va “cough” fe‘llari bir martadan ishlatilgan. Bunda garchi, adabiyotda leksik aspect turkumlarining xususiyatlarining biroz noo‘rin tomonlari mavjud. Aniqrog‘i, adabiyot semelfaktivlarning tabiatiga darhol muvofiq kela olishi yoki kela olmasligiga ko‘ra xilma-xillanadi va ko‘pgina holatlar predikatlarining leksik turkumini o‘zgartirib yuboradi. Semelfktivlar mavjud adabiyotda ko‘proq holatli yoki harakatli xususiyatlari yoki ikkalasi oralig‘ida yotishiga ko‘ra biroz bahsli mavzudir. Semelfaktivlarning taqdim etilgan ushbu uch farazlari ularni alohida aspectual sinfga tasniflaydi. Semelfaktivlarning ichki tuzilmasini yaxshiroq tushunish bizga ularning boshqa aspectual sinflarning qanchalik bog‘liqligini aniqlashtiradi. Ushbu konkret aspectual turkum to‘g‘risida mulohaza yuritilar ekan, dastlabki mulohaza “aspect” atamasini to‘g‘ri mushohada qilish va aspect va zamonning tafovutlarining aniq ekanligiga alohida urg‘u berilishi kerak deb hisoblayman. Zamon ham aspect ham tasvirlanayotgan hodisa yoki holatlarning davriy ma‘lumotini ochib beradi. Shunga qaramasdan, Komre tavsiflaganidek, zamon farqli ravishda ,holat vaqtining boshqa bir zamon nuqtasi bilan farqi bog‘liqligiga diqqat qilinsa, aspect esa, holatning ichki izchilligi vaqtini izohlaydi.

Bu tafovut quyidagi misolda yaqqol ochib berilgan:

She was cooking when, suddenly, a spider appeared.

Zamon vaqt chizig‘ida holat ichida butunligicha joylashgan, ya‘ni, o‘tgan zamonda. Aspect esa bu o‘rinda voqeaning tizimiy xususiyatining o‘ziga e‘tibor qaratyapti.

Bundan tashqari, Kearnsning talqinicha aspect holatning har ikkala ichki va tashqi jihatdan ham tavsiflaydi. Natijada, “was cooking” va “appeared” kesimlari birdek o'tgan zamonda berilgan bo'lsada, ular aynan bir aspectual xossalarga ega emas, masalan, “was cooking” ayni bir vaqt oralig'idagi davomli jarayonni ifodalasa, “appeared” esa darhol sodir bo'lgan hodisani ko'rsatyapti. Aytish mumkinki, aspect tushunchasi ikki turdan iborat bo'ladi:

Bir tomondan, morfologik aspect mavjudligi ma'lum, bunda, fe'ning morfologik shakllari yuritiladi. Aslida, “*she was cooking and a spider appeared*”. Morfologik nuqtai nazardan bir biriga muvofiq kelmagan. O'tgan davomli (was cooking) vaqt oralig'idagi jarayondagi hodisani izohlaydi, uning tugallanmaganlik aspekti mavjuddir, xolbuki, o'tgan oddiy zamon ma'lum bir vaqtdagi yakka holatning sodir bo'lishiga e'tibor qaratyapti, bunda, tugallanganlik aspekti bor. Aspektning yana boshqa bir turi – bu **leksik** aspektidir. Kearnsning fikricha, leksik aspect modulyatsiyalanmagan predikatning asosiy negizi bo'lib, bunda, holat va harakatlar turli zamon shakllarida ko'rsatiladi. Shunda leksik aspektning fe'ning morfologik xususiyati bilan umumiylik yo'qligini aniqlash mumkin bo'ladi. Yuqorida berilgan misolda masalan, leksik aspect “appeared” fe'li misolida allaqachon aloqador ekanligi tasvirlab berilgan. Yuqorida ko'rib chiqilgan ma'lumotlar fe'ning nafaqat morfologik xususiyatini predikatning holat va vaziyat o'rtalig'idagi tafovutni aniqlashga olib kelishini bilib oldik, balki modulyatsiyalanmagan predikatning o'zi jarayonning qanday uslubda vaqt bilan ichki strukturaviy bog'lana olishini ham tushuntirib beradi. Xullas, biz leksik aspektni fe'lli birikmalarni holatli turlarni izohlovchi xususiyatlarning tafovutlarini yopuvchi, va tilshunoslar fe'llarni fe'l turkumlariga tasniflashga harakat qilgan birlik sifatida ayta olishimiz mumkin. Ta'kidlab o'tilganidek, Rayl va Kenni aktionsartenning turli xillari va uning turli tafovutlarini aniqlashdagi bilimlarni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan Zeno Vendler fe'llarni quyidagi to'rt kategoriyaga tasniflashga harakat qilgan ilk tilshunos hisoblanadi;

1. States (holat)
2. Activities (harakat)

3. Accomplishments (tugallangan)
4. Achievement (natijaga ega).

Aslida, Vendlarning tasnifi ayni zamonda juda maqbul qabul qilingan bo'lib, lingvistik tadqiqot uchun mos va ta'sir doirasi keng hisoblanadi.

1. I love travelling- state
2. John wept- activity
3. Mary built her own house- accomplishment
4. I recognized the thief- achievement

Bunday tasnifni yarata olish uchun Vendler predikatni uch asosiy xossaning qiymatini tahlil etadi:

Turg'unlik

Davomiylik

tugallanganlik

Staticity (turg'unlik) – static va dinamik predikatlarning o'rtasidagi farqni aniqlash juda oson bo'ladi . ushbu ikki predikatlarning tafovutini izohlash uchun Komrie eventualistlarning fazasini ta'kidlab o'tadiki, dinamik predikatlar ha, holatlar deb nomlanadi, va bunda ular o'ziga xos fazalar hosil qiladi, xolbuki, static predikatlarning fazalari bir xil:

She knows I am drawing a portrait.

“know” fe'li static, chunki u turli fazalardan yasalmagan. Bundan farqli ravishda, “draw” esa dinamik, chizish jarayoni turli fazalardan hosil bo'lganligi bilan farqlanyapti ,chizishni boshlash vaqti bilan suratni tugallash vaqti ayni bir xil bo'lmaydi. Turg'un fe'llar o'zgarishni talab etmaydigan fe'l sifatida qabul qilinishi mumkin, ammo jarayonning asli holati dinamik bo'la oladi. Shunga qaramasdan, aytish joizki, yuqoridagi izohlar aslidakutilganidek ishlamasligi ham mumkin. Harakat misolida Komrie quyidagi misolni tavsiflaydi:

The oscilloscope is emitting a pure tone at 300 cycles per second.

Garchi “emit” fe'li dinamik bo'lsada, u hech qanday turdagi zaruriy o'zgarishni talab etmaydi. Natijada, Komrie bu tafovutga ancha tartibli izohni yuzaga keltiradi. Static

uzluksizlarga qaramasdan, dinamik holatlar energiyaning yangi kiritilgan ma'lumotini to'xtovsiz ifodalaydi. Agar men suratni chizishdan to'xtasam, bu dinamik vaziyat uzoq davom etmaydi. Bunga zid tarzda, u ataylab men surat chizayotganim holatini bila turib to'xta olmaydi. Ba'zi fe'llar bir vaqtning o'zida kengaytiriladi, ya'ni ular davomiy bo'ladi, ammo ba'zi boshqa fe'llar o'zgarmas xossaga ega bo'lib, ichki tuzilmaga ega bo'lmaydilar. Telicity (yunonchadan "telos"- maqsad, yetishish, tugallash) – fe'llarning aspectual turkumlarga tasniflashda so'nggi farqni tugallangan va tugallanmagan predikatlarni inobatga olish zarur.

A) John wrote a letter to his father – tugallangan;

B) John is humming- holat;

Ushbu misollardagi "wrote"- bu tugallangan,"humming" –esa tugallanmagan, xatni yozish holati davriy bog'langan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, semelfaktivlar Vendlerning harakatli fe'llariga ba'zan egalik xossalariga ko'ra bog'langan bo'ladi. Tilshunos olim Susan Rutshteynning tadqiqotiga ko'ra, har bir semelfaktiv harakat nuqtai nazardan omonimdir, shu asnoda semelfaktivlar mustaqil sinf emasligi ayon bo'ladi. Smitning semelfaktivlarning darhol sodir bo'luvchi hodisa ko'rinishidagi konsepsiyasi davomiy, rivojlanuvchi ravishlar bilan mos kelmasligini ko'rishimiz mumkin. Shunga qaramasdan, o'sha diagnostic testlarga murojaat qilganda, biz har ikkala Harakat va Semelfaktiv predikatlarining bir xil, mos kelishini quyidagi misollarda guvohi bo'lamiz:

English: Susan is coughing- Semelfactive

English : I am speaking right now. -Activity,

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Semelfaktiv predikatlar xuddi Harakat fe'llariga o'xshab rivojlanuvchi xossadek bir xil ko'rinadi. Lingvistik dalillarga asoslanib, semelfaktivlarning davomiylik ekanligi bahsli bo'lishi mumkin, garchi ular qisqa vaqt oralig'da sodir bo'lsada. Shunga qaramasdan, aniq lingvistik dalillar ham mavjudki, semelfaktiv predikatlar darhol sodir bo'luvchi holatlarni hosil qiladi. Bu jarayonda sof semelfaktiv fe'llar oralig'idagi tafovutlar mavjud bo'lishi kerak edi, bunda ularning taqsimlanishi ma'lum chegara (me'yor) yoki jadallik asnosida



bo'lishi kerak va semelfaktiv predikatlar o'qish jarayonidan yakkalansa, davomiylik xususiyati doirasiga aynan mos bo'lishi aniqlanadi. Bundan tashqari, davomiy jarayon shaklida, holatlar semelfaktiv xulosa orqali jarayonlar yig'indisini hosil qiladi, xolbuki, semelfaktivlar tabiiy jadal hodisalarga asosiy urg'u beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jonassen D.H. Constructing learning environments on the web: Engaging students in meaningful learning. EdTech 99: Educational Technology Conference and Exhibition 1999: Thinking Schools, Learning Nation. - 1999 - p. 45-46.
2. David Nunan. Communicative Language Teaching – 2004.
3. Shaw Corsini, Blake & Mouton, 1980; Horner & McGinley, 1998.
4. Brown H.D. (2001). Teaching by principles: An attractive approach to language pedagogy. New York: Longman.